

Jo'rayeva Marjona

*Guliston Davlat Instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi
1-kurs 9.23-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh oilalardagi muammolar hamda ularning yuzaga kelish sabablari, yosh oiladagi muammolarni yechimini topish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash qonunchilikda yosh oilalarga ko'mak berish huquqiy bazasini kengaytirish zarurligi haqida.*

Kalit so'zlar: *Oila, nikoh, psixologik, ijtimoiy, nikoh munosabatlari, yosh oila, oilaviy muhit, jamiyat, oilaviy muammolar, davlat, ijtimoiy siyosat.*

Kirish

Oila har bir mamlakatning asosiy negizi ekanligini inobatga olsak, tabiiyki, uning mustahkamligi jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq. Butun dunyoda davom etayotgan oilaviy inqiroz O'zbekistonni ham chetlab o'tmayotgani bugun hech kimga sir emas. Afsuski, bu masalada ota-onalari qatori yoshlarning ham ulushi ko'proq. Yoshlar tashkiloti va qator mutasaddilar tomonidan o'tgan davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasidagi ajrim holatlarining oldini olish maqsadida qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hanuz bu sohadagi muammolarimiz yetarlicha. Bunga yosh oilalar vakillarining nikohga bo'lgan mas'uliyatsizligi, farzand taqdiriga bo'lgan loqaydlik bir sabab bo'lsa, yosh oilalarga maslahat berib, ularga bosh bo'lish o'rniga g'urur va kibrga berilgan, bolasining ayblarini xaspo'shlaydigan ota-onalardagi shoshqaloqlik yana bir sabab bo'lmoqda. Jumladan, befarzandlik, xiyonat, moddiy ta'minot darajasi pastligi, ishsizlik, ichkilikbozlik, ichki va tashqi migratsiya, kasallik, uy-joy masalasi bog'liq muammolar ham endigina qurilgan muqaddas qo'rg'onlarni jar yoqasiga yetaklamoqda. Aslida oila haqidagi qadriyatlar yoshlar ongiga bolalikdanoq singdirilishi kerak

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalari hududlarda yosh yigit-qizlarni oila qurish, mustaqil hayotga tayyorlash ishlarini kuchaytirish, ularga oila muqaddasligini tushuntirishda ota-ona, yaqin qarindoshlarning mas'uliyatini oshirish, oiladagi moddiy qiyinchiliklar va ziddiyatlarni ijobiy tomonga hal etish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko'rsatgan.

Bugungi kunda yoshlarning aksariyati (92,3 foizi) oila qurish va oilaviy munosabatlarni baxt sifatida qabul qiladi. Ammo yoshlarning 82,3 foizida oilaviy ajrashishdan xavotiri yuqori darajada ekani ma'lum bo'ldi. Bu esa o'z navbatida yigit-qizlar hayotida oila muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Ma'lumotlar tahliliga ko'ra, fuqarolarning deyarli uchdan ikki qismi (69,5%) 22-25 yosh oralig'ida oila qurgan ma'qul, 18,3 foizi esa 18-21 yoshda oila qurish kerak deb hisoblaydi. Oilaviy baxtga erishish jamiyatda er-xotin o'rtasidagi mojarolar va zo'ravonlikning oldini olishda hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish – shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishi va rivojlanishida muhim o'ringa ega bo'lib, undagi osoyishta psixologik muhit er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish va ajrimlarning oldini olish bo'yicha keng tushuntirish ishlarini olib borish barchamizga yuqori mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularni jamiyatning faol a'zosiga aylantirishda ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Institut o'tkazgan tadqiqot ishtirokchilarining 57,1 foizi oilaviy munosabatlarning muhimligini tushuntirish va tegishli maslahatlarni berishda ota-ona, yaqin qarindoshlar, 16 foizi esa ta'lim muassasalarining o'rni muhimligiga urg'u bergan. Shu bilan birga, har ikkinchi yosh joylarda yoshlarni oilaviy va mustaqil hayotga tayyorlash ishlaridan qoniqmayotganini qayd etish zarur. Mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ajrimlarning oldini olish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, oilaviy munosabatlardagi mojarolar va uning natijasida sodir bo'layotgan ajrashishlar soni ortishi jamiyat rivoji yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

2023-yildagi statistika ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar soni 2 886 296 tani, oila qurganiga 5 yil to'lmagan oilalar o'rtasidagi ajrimlar esa 17 628 tani tashkil etgan.

Muhokama

Afsus, ijtimoiy tarmoqlar sabab ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bisyor. Yoshlarning aksariyati bugun qayerda? Ijtimoiy tarmoqlarda... Biz, demak ularga singdirmoqchi bo'lgan ideologiyani ham aynan ularning vaqti ko'p sarflanadigan o'sha internet imkoniyatidan foydalanib amalga oshirishni maqsad qildik. Oilaning muqaddasligini bir kunda yoshlarga tushuntirib va bitta tashkilot tomonidan singdirib bo'lmaydi, — deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Yosh oilalar va xotin-qizlar bo'lim boshlig'i Gulchehra Ashurova. — Bu borada ota-onalar, jamoatchilikning e'tibori zarur. Agar ota-onalar nikoh qurish yoshidagi farzandlariga shaxsiy namuna bo'la olsa, 1 yilga qolmay uyiga qaytib keladigan qizlari, 2-3 marotaba uylanadigan o'g'illari bo'lmaydi.

Yosh oilalar o'rtasidagi ajrim va maishiy hayotdagi ijtimoiy ziddiyatlar o'zaro bog'liq jarayonlar bo'lib, bu boradagi chora-tadbirlar natijadorligi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mutaxassislari tomonidan yosh oilalar o'rtasidagi ajrimlarning asosiy sabablari o'rganilganda, ular moddiy yetishmovchilik, uchinchi

shaxslarning aralashuvi, tushunmovchilik holatlari hamda er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Bundan tashqari, oilada er (yoki uning yaqin qarindoshlari) tomonidan turmush o'rtog'iga nisbatan jismoniy kuch va ruhiy bosim o'tkazilishining salbiy holat ekani va ajrimlarning ortishiga olib kelishini ta'kidlagan yoshlar 71,1 foizni tashkil etmoqda. Yoshlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda oilalarda ayollarga nisbatan jismoniy kuch yoki psixologik bosim ishlatilishi qator subyektiv omillar bilan bog'liq. Birlamchi sabablari – ong va tarbiya, ayollarning turmushga tayyor emasligi va erning oilasida shakllangan muhit bilan bog'liq. Keyingi o'rinlarda esa oilaning erkin emasligi, ota-ona bosimi asosida qurilganligi, qator iqtisodiy qiyinchiliklarning mavjudligi, erning boshqa ayolga ko'ngil qo'yishi, shuningdek, aksariyat hollarda kelinning o'zini himoya qila olmasligi va milliy mentalitet ham bularning triggerlari sifatida baholangan. Achinarlisi, bu kabi destruktiv xatti-harakatlar ayrim hollarda ijobiy natija va samarali ta'sir ko'rsatadi degan fikrda bo'lgan yoshlar ham yo'q emas. Yoshlar qadriyatlari ustuvorligida ikkinchi oila qurishga bo'lgan munosabatda ayrim o'zgarishlar tendensiyasi sodir bo'layotganini kuzatish mumkin. Yoshlarning fikricha, ikkinchi oila qurish oilaviy munosabatlarning yanada chigallashuviga olib kelib, ajrashishlarning asosiy sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

Natija

Bugungi kunda mamlakatimizda 2 mln.dan ortiq yosh oilalar bor. 2019-yilning 6 oyi davomida 104 ming 158 ta yosh oila nikohi qayd etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan yoshlarni ongli ravishda oilaga tayyorlash, yosh oilalar ajrimi oldini olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qator loyihalar o'tkazilmoqda.

“Yosh oilalarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi ko'magi” loyihasi shunday yirik loyihalardan biri. Joriy yilda loyiha doirasida ijtimoiy-iqtisodiy og'ir holatdagi 3 ming 169 ta yosh oilaga psixologik ko'mak, 2 ming 25 ta yosh oilaga huquqiy ko'mak ko'rsatildi. 616 ta ajrim yoqasidagi yosh oilalar yarashtirildi.

Respublikamizda ko'plab “Kelin-kuyovlar innovatsion maktablari” tashkil etilib, unda oila qurish bo'sag'asidagi yoshlarga oilaviy qadriyatlar haqida tushuncha berib borilyapti. Innovatsion maktablarda bo'lg'usi kelin-kuyovlar uchun oilaviy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslari, oila iqtisodiyoti, ro'zg'or byudjetini yuritish, nikoh munosabatlari, sog'lom turmush tarzi, nizolarning oldini olish, muloqot madaniyati, huquqiy munosabatlar, oilani idora qilish kabi mavzularda mahorat darslari o'tilayotgani mustahkam va namunali oilalar ko'payishiga xizmat qilmoqda. Moddiy yetishmovchilik tufayli ajrim yoqasida kelib qolgan oilalarga yordam ko'rsatilmoqda. “Mustahkam va sog'lom oilani barpo etamiz!” shiori ostidagitarg'ibot loyihasi doirasida 1 ming 597 ta mahallada manzilli o'rganish olib borilib, 1 ming 834 ta yosh oilaga ijtimoiy, huquqiy, psixologik ko'mak ko'rsatildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yosh oilalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar berish tizimini takomillashtirish, jamiyatdagi oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini o'rganishni hamda mahallalardagi yoshlar yetakchilariga ajrashish yoqasida turgan yosh oilalar bilan ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Yosh oilalar o'rtasidagi ajrim holatlarining oldini olishda yoshlar yetakchilarining o'rni beqiyos. Ular oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish, muammolarni ijobiy hal qilish uchun, avvalo, ularning kimlar o'rtasida yuz berayotganini farqlashi zarur. Buning uchun mahalladagi xotin-qizlar faoli yoki maktab psixologi yordamida dastlabki holatni aniqlashga qaratilgan umumiy savollar va har bir muammoning psixologik xususiyatini belgilashga mo'ljallangan psixologik testlar o'tkaziladi. Ushbu testlar orqali nizoli oilalardagi muammolar o'rganiladi va bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassislar biriktiriladi. Biriktirilgan mutaxassislarning nizoli oila vakillari bilan individual ishlashi qayd etib boriladi. Ushbu nizoli oila barqarorlashguncha faoliyat olib boriladi va oxirida ijobiy natija qayd etiladi.

Bundan tashqari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularni jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirishda ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrashishlar va kelishmovchiliklarning oldini olishda hududlarda (mahallalar kesimida) yoshlarni nikohga va oila qurishga tayyorlash bo'yicha tushuntirish ishlari va o'quvlarni tizimli (haftada 1-2 marotaba) tashkil etish o'rinli bo'lib, bunda mahalladagi xotin-qizlar faoli va mahalla raisining xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatilishi va oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishi bo'yicha mas'uliyatini oshirish lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekistonda yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. 2022 yil.

Shavkat Mirziyoyev «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi» Xabar.uz 22.01.2018

Karimova V , G'oyibova N., Oila psixologiyasi " o'quv qo'llanma. Toshkent 2022-yil.

www.ziyonet.uz

www.guldu.uz

www.tdpu.uz

www.wikipedia